



UDK:316.77:004:1

Umida NURMATOVA,
Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti
E-mail: umidanurmatova@samdpi.uz

NDTU katta o'qituvchisi, PhD G.Mamajonova taqrizi asosida

VIRTUAL BILIMLAR MAKONIDA TAFAKKURNING TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida shakllanayotgan virtual bilimlar makonining inson tafakkuriga ko'rsatayotgan ta'siri falsafiy va gnoseologik jihatdan tahlil etiladi. Raqamli texnologiyalar, internet tarmoqlari va sun'iy intellekt asosida yuzaga kelayotgan yangi bilim muhiti bilish jarayonining mazmuni, shakli va mexanizmlarini tubdan o'zgartirmoqda. Maqolada virtual bilimlar makonida tafakkurning transformatsiyasi, uning tezkorlik, fragmentarlik, interaktivlik kabi xususiyatlari, shuningdek, mazkur jarayonning ijobiy va salbiy oqibatlarini tizimli ravishda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Virtual bilimlar, virtual borliq, tafakkur transformatsiyasi, axborotlashgan jamiyat, bilish nazariyasi, intellektual rivojlanish, raqamli makon, tanqidiy tafakkur.

ТРАНСФОРМАЦИЯ МЫШЛЕНИЯ В ПРОСТРАНСТВЕ ВИРТУАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ

Аннотация

В данной научной статье философский и гносеологический анализ проводится воздействия формирующегося виртуального пространства знаний на человеческое мышление в условиях информационного общества. Новая среда знаний, создаваемая цифровыми технологиями, сетями интернета и искусственным интеллектом, фундаментально изменяет содержание, формы и механизмы познавательного процесса. В статье системно рассматривается трансформация мышления в виртуальном пространстве знаний, его характеристики, такие как скорость, фрагментарность, интерактивность, а также положительные и отрицательные последствия этого процесса.

Ключевые слова: Виртуальные знания, виртуальная реальность, трансформация мышления, информационное общество, теория познания, интеллектуальное развитие, цифровое пространство, критическое мышление.

TRANSFORMATION OF THINKING IN THE SPACE OF VIRTUAL KNOWLEDGE

Annotation

This scientific article analyzes, from a philosophical and epistemological perspective, the impact of the emerging virtual knowledge space on human cognition in an information-based society. The new knowledge environment created by digital technologies, internet networks, and artificial intelligence fundamentally transforms the content, forms, and mechanisms of the cognitive process. The article systematically addresses the transformation of thinking in the virtual knowledge space, its characteristics such as speed, fragmentation, and interactivity, as well as the positive and negative consequences of this process.

Key words: Virtual knowledge, virtual reality, transformation of thinking, information society, theory of cognition, intellectual development, digital space, critical thinking.

Kirish. Globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari ta'lim, fan va madaniyat sohalarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirib, bilim olishning an'anaviy shakllarini virtual muhit bilan almashirmoqda. Ayniqsa, ta'lim va bilish jarayonlarida virtual texnologiyalarning keng qo'llanilishi inson tafakkurining shakllanishida muhim omilga aylandi. Raqamli texnologiyalar, internet va sun'iy intellekt asosida shakllangan virtual bilimlar makoni an'anaviy bilish shakllarini tubdan o'zgartirmoqda. Natijada inson tafakkuri yangi sharoitga moslashib, o'zining mazmuni va funksiyalarini qayta shakllantirmoqda. Bugungi kunda inson bilimni nafaqat kitob va auditoriya orqali, balki internet, raqamli platformalar, sun'iy intellekt tizimlari yordamida o'zlashtirmoqda. "Bugungi yoshlar, deydi - Prezident Sh.Mirziyoyev, - o'ziga kerakli ma'lumotlarni avvalo internetdan olmoqda"[1]. Mazkur jarayon inson tafakkuriga bevosita ta'sir ko'rsatib, uning mazmuni, tuzilishi va funksiyalarini o'zgartirmoqda. Virtual bilimlar makoni sharoitida bilish jarayoni tezlashib, ko'p yo'nalishli va interaktiv tus olmoqda. Virtual bilimlar makoni sharoitida bilim olish jarayoni makon va zamon bilan cheklanmay, global va uzluksiz tus oladi. Bu esa bilish subyekti sifatida insonning tafakkuriga yangi talablarni qo'yadi. Shu bilan birga, axborotning haddan tashqari ko'pligi tafakkurning yuzakilashuvi, fragmentarlashuvi va tanqidiy

fikrlashning susayishi kabi muammolarni ham yuzaga chiqarmoqda. Shu bois, virtual bilimlar makonida tafakkurning transformatsiyasini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish dolzarb falsafiy muammolardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yevropa, MDH va O'zbekiston olimlari tadqiqotlarida ham mazkur masala tobora keng yoritilmoqda. Xususan, raqamli jamiyat, virtual ta'lim, sun'iy intellekt va tafakkur transformatsiyasi bilan bog'liq ishlarda virtual bilim makonining gnoseologik, pedagogik va falsafiy jihatlari ochib berilgan. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, virtual bilimlar makonida tafakkurning "kompleks falsafiy modeli", uning ontologik, gnoseologik, sinergetik va aksiologik o'lchovlari yetarli darajada tizimli umumlashtirilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy ijtimoiy-gumanitar fanlarda qo'llanilayotgan nazariy va empirik tahlil usullarining uyg'unligiga tayangan. Avvalo, "dialektik metod" orqali virtual va an'anaviy bilim makonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, tafakkurning uzluksiz rivoji va qarama-qarshi tendensiyalari (chuqurlik va yuzakilik, tizimlilik va fragmentarlik, refleksiya va avtomatizm) tahlil qilindi. Ushbu metod tafakkur transformatsiyasining keng mantiqiy harakatini ochib berishga xizmat qildi.

“Tizimli-strukturaviy yondashuv” virtual bilim makonini murakkab ijtimoiy-madaniy tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Bu yondashuv asosida tafakkurning kognitiv, kommunikativ va aksiologik komponentlari o'zaro aloqadorlikda o'rganildi. Shuningdek, maqolada qiyosiy metoddan foydalanilib, an'anaviy bilim paradigmalari bilan virtual bilim modellarining o'xshash va farqli jihatlari solishtirildi. Bu metod tafakkur transformatsiyasining tarixiy va madaniy shartlanganligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Gnoseologik, sinergetik va aksiologik tahlil usullari yordamida virtual bilimlar makonida bilimning ishonchligi, mazmuniy chuqurligi, qadriyatlar tizimiga ta'siri masalalari o'rganildi.

Natijalar va muhokama. Falsafa tarixida bilim inson ongining borliqni aks ettirish shakli sifatida talqin qilingan. Platon uchun bilim mutlaq g'oyalar olamiga murojaat bo'lsa, Aristotel uchun bilim sabablar va mohiyatni anglash jarayonidir. Ibn Sino bilishni sezgi orqali idrokdan aqliy bilish bosqichiga ko'tariluvchi jarayon sifatida izohlagan. Kant uchun bilim subyekt va obyektning o'zaro munosabatida shakllanadi. Bu yondashuvlardan ko'rinadiki, an'anaviy ta'lim jarayoni bilimni bevosita idrok, tafakkur va muloqot orqali shakllantirishga tayanadi. Demak, Bilish jarayoni aqliy safarbarlik orqali tafakkur va tasavvur faoliyati natijasida amalga oshadi. Bunda avvalo, bilish va bilim tushunchalariga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. “Bilish deb insonning borliq va uning obyektiv qonuniyatlarini o'rganish, anglash, o'zlashtirish egallashlariga aytiladi”[2]. “Bilim deb insonning hayoti davomida obyektiv borliq haqidagi yoki muayyan tabiiy, madaniy, ma'rifiy, ma'naviy, harbiy va shu kabi sohalarga oid tartibga solingan ilmiy, amaliy ma'lumotlar, tushunchalar majmuasiga aytiladi”[2]. B.Ziyamuhamedov: “Narsa va hodisalarda xususiyat, qonuniyat, qonun, qoida, ta'rif, tushuncha sifatida namoyon bo'luvchi, ularning qismlari orasidagi zaruriyat aloqadorlikning kishi tafakkuridagi in'ikosi bilim deyiladi”[3] - degan ta'rifni beradi. Demak, bilish insonning tabiat, jamiyat va o'zi to'g'risida bilimlar hosil qilishiga qaratilgan aqliy, ma'naviy faoliyat turi hisoblanadi. Bilim olishda, ya'ni ma'lum turdagi axborotlarni o'zlashtirishda axborot texnologiyalarini o'rni benihoya kattadir.

Bugungi kunda, virtual bilimlar makonining shakllanishi, aynan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji bilan bog'liq. Ushbu jarayon bilimning an'anaviy manbalaridan virtual muhitga ko'chishiga sabab bo'ldi. Natijada bilim olish jarayoni erkinlashdi, individuallashdi va globallasdi. Bu esa inson tafakkurining mazmuniy va strukturaviy o'zgarishlarini yuzaga keltirdi. Shu o'rinda, “virtual boqliq” tushunchasiga alohida e'tibor qaratish lozim. “Virtual borliq (lot.virtualis - ehtimoliy) - borliqning ro'y berish ehtimolligi bor qismi, hayoliy borliq”[4]. Demak, kelajakning kurtaklari hozirdan boshlanar ekan bugungi yoshlar virtual borliqdan turli axborotlarni qabul qilmoqda. Shuningdek, Virtual bilimlar makoni deganda internet, raqamli kutubxonalar, onlayn ta'lim tizimlari, sun'iy intellekt tizimlari va axborot platformalaridan iborat bilim muhiti tushuniladi. Bu makonda bilim tez tarqaladi, doimiy yangilanadi va ko'p shakllarda - matn, video, audio, grafik ko'rinishlarda taqdim etiladi. Natijada inson bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki uni faol izlovchi va qayta ishlovchi subyektga aylanadi.

Biroq virtual bilimlar makonining salbiy jihatlari ham mavjud. Axborot haddan tashqari ko'pligi sababli inson yuzaki bilim bilan cheklanib qolishi mumkin. Ba'zan tanqidiy fikrlash yetarlicha rivojlanmay, tayyor axborotni tekshirmasdan qabul qilish holatlari kuzatiladi. Bu esa tafakkurning keng va mantiqiy rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Prof. Sh.S.Kushakov fikricha, “kompyuter asri yangi

dezinformasiyani vujudga keltirdi, ya'ni feykli dezinformasiya. Demak virtual olamda ko'proq yolg'on ma'lumotlar tarqatish, kishilarni aldash, chalg'itish oson kechmoqda”[5]. Natijada virtual bilimlar makonida shakllanayotgan tafakkur tezkorlik va qulaylik bilan bir qatorda, yuzaki bilimga berilish, tanqidiy fikrlashning susayishi kabi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli mazkur jarayonni chuqur tahlil qilish, uning ijobiy va salbiy jihatlari ilmiy asosda ochib berish zarurati tug'ilmoqda. Ayniqsa, yoshlar tafakkurining virtual muhitda shakllanishi, ularning dunyoqarashi va bilish faoliyatiga ta'siri masalasi alohida e'tiborga loyiqdir.

Aytish mumkinki, virtual bilimlar makonida tafakkur transformatsiyasining eng muhim muammolaridan biri tanqidiy fikrlash masalasidir. Axborotning ko'pligi va tezkorligi insonni tayyor bilimni tekshirmasdan qabul qilishga undashi mumkin. Bu esa tafakkurning keng va mustaqil rivojiga to'sqinlik qiladi. Tanqidiy tafakkur virtual bilimlar makonida axborotni tahlil qilish, baholash va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantirishni talab etadi. Ushbu jihat an'anaviy ilmiy bilish usullari bilan virtual bilimlarni uyg'unlashtirish orqali ta'minlanadi. Faqat shu holdagina tafakkur transformatsiyasi ijobiy yo'nalishda kechadi.

Shuningdek, virtual bilimlar makonining shakllanishi bir necha omillar bilan bog'liq. Avvalo, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji bilimning makon va zamon chegaralaridan chiqishiga imkon berdi. Ikkinchidan, globallasuv jarayoni bilim almashinuvi va integratsiyasini tezlashtirdi. Uchinchidan, ta'lim tizimida raqamli yondashuvlarning keng joriy etilishi virtual bilimlar makonining ijtimoiy ahamiyatini oshirdi. Mazkur virtual makonda bilimlar tez yangilanadi, ko'p formatda taqdim etiladi va interaktiv holatda doimiy yangilanib boruvchi jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Natijada bilish jarayoni an'anaviy passiv shakldan faol va interaktiv shaklga o'tadi. Bunday sharoitda tafakkur transformatsiyasi, avvalo, bilishning gnoseologik asoslarida namoyon bo'ladi. Subyekt va obyekt o'rtasidagi munosabatlar murakkablashib, inson bilimni tayyor holatda emas, balki virtual muhitda qayta ishlab, tanlab va talqin qilib o'zlashtiradi. Tafakkur tezkor va moslashuvchan bo'lib boradi, biroq mantiqiy izchillik va keng tahlil talab qiladigan jarayonlar qisqarishi mumkin.

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar va internetning jadal rivojlanishi natijasida insonning bilim olish usullari tubdan o'zgardi. Avvallari bilim asosan kitob, ustoz va an'anaviy ta'lim muassasalari orqali egallangan bo'lsa, bugungi kunda bilimlar virtual muhitda - onlayn platformalar, elektron manbalar, sun'iy intellekt tizimlari orqali shakllanmoqda. Aynan mana shu “virtual bilimlar makoni” inson tafakkurining o'zgarishiga, ya'ni “tafakkur transformatsiyasiga” sabab bo'lmoqda.

Tafakkurning transformatsiyasi, avvalo, “fikrlash tezligi va shaklining o'zgarishida” namoyon bo'ladi. Virtual muhitda inson bir vaqtning o'zida ko'plab axborotlarga duch keladi. Bu esa tez qaror qabul qilish, solishtirish va tanlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, tafakkur ko'proq vizual va fragmentar xarakter kasb etadi, ya'ni ma'lumotlar qisqa, lo'nda va tasviriy shaklda qabul qilinadi.

Virtual bilimlar makoni tafakkurning “ijodiy va tahliliy jihatlari” ham o'zgartirmoqda. Onlayn muhitda muammolarni hal qilish, yangi g'oyalar yaratish va mustaqil izlanish imkoniyatlari kengaydi. Inson tayyor bilimni yod olishdan ko'ra, uni izlab topish, tahlil qilish va amaliyotga qo'llashga o'rganmoqda. Bu esa tafakkurning faol, izlanishga yo'naltirilgan shaklini vujudga keltiradi. Shu sababli virtual bilimlar makonida tafakkurning transformatsiyasi “ikki tomonlama jarayon” hisoblanadi. Bir tomondan, u insonning bilish imkoniyatlarini kengaytiradi, mustaqil va ijodiy

fikrlashni rivojlantiradi. Ikkinchi tomondan esa ongli yondashuv va tanqidiy tafakkur bo'lmasa, bilim yuzaki va parokanda bo'lib qolishi ehtimoli mavjud.

Tafakkur transformatsiyasi ijobiy imkoniyatlar ya'ni, bilim olish imkoniyati kengayadi, kognitiv faoliyat turlicha yo'nalishlarda rivojlanadi hamda kreativlik va yangicha fikrlash ko'nikmalari orttirishi bilan birga ayrim salbiy jihatlarni ya'ni, diqqat tarqoqligi va keng fikrlashning qisqarishi, noto'g'ri ma'lumotlar bilan to'qnashish xavfi hamda tafakkurning texnologiyalarga haddan tashqari bog'lanishini ham yuzaga keltiradi. Shu bois, bu transformatsiyani axloqiy, madaniy va falsafiy nazorat ostida olib borish zarur.

Virtual muhitda tafakkur transformatsiyasining asosiy xususiyatlari mavjudligini ham keltirib o'tish o'rinli bo'ladi. Virtual bilimlar makonida tafakkur transformatsiyasi quyidagi asosiy jihatlardan orqali namoyon bo'ladi.

Birinchidan, tafakkur "tezkorlik va moslashuvchanlik" xususiyatiga ega bo'lmoqda. Inson qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotni qabul qilish va uni saralashga majbur bo'lmoqda. Bu holat tez fikrlash va tez qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, tafakkur "fragmentar" xarakter kasb etmoqda. Virtual muhitda bilimlar ko'pincha qisqa axborot bloklari shaklida taqdim etiladi. Bu esa tafakkurning mantiqiy izchilligi va chuqurligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, vizual tafakkur ustuvor ahamiyat kasb etib, obrazli fikrlash kuchayadi.

Uchinchidan, virtual bilimlar makoni tafakkurning "ijodiy va tahliliy imkoniyatlarini kengaytiradi". Inson tayyor bilimni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmay, uni mustaqil izlash, solishtirish va qayta talqin qilish imkoniga ega bo'ladi. Bu holat tafakkurning faollashuviga va muammoli fikrlashning rivojiga xizmat qiladi.

Gnoseologik jihatdan virtual bilimlar makonida tafakkur transformatsiyasi, avvalo, bilish nazariyasi nuqtayi nazaridan subyekt va obyekt o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishida namoyon bo'ladi. An'anaviy bilish jarayonida subyekt tayyor bilimni qabul qiluvchi sifatida namoyon bo'lsa, virtual muhitda u bilimni tanlov asosida izlaydi, qayta ishlaydi va talqin qiladi. Bu holat tafakkurning tezkorlik va moslashuvchanlik xususiyatlarini kuchaytiradi. Shu bilan birga, virtual bilimlar makonida tafakkur fragmentar xarakter

kasb etib, bilimlar ko'pincha qisqa axborot bloklari orqali o'zlashtiriladi. Vizual tafakkur ustuvor bo'lib, obrazli va assosiativ fikrlash kuchayadi. Biroq mazkur jarayon tafakkurning mantiqiy izchilligi va chuqur tahlil qilish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli virtual bilimlar makonida gnoseologik muvozanatni saqlash muhim vazifa hisoblanadi.

Virtual ta'lim jarayonida bilim ko'p hollarda tayyor axborot shaklida iste'mol qilinadi. Natijada bilish jarayoni passiv qabul qilishdan iborat bo'lib qolish xavfi yuzaga keladi. Virtual bilimning epistemik xususiyati uning tezkorligi, fragmentarligi va kontekstga bog'liqligida namoyon bo'ladi. Bu esa bilishning mantiqiy izchilligi va tushunish chuqurligiga ta'sir qiladi. Shunday bo'lsa-da, to'g'ri tashkil etilgan virtual ta'lim bilimning yangi shakllarini - ko'p qatlamli idrok, interaktiv tafakkur va moslashuvchan bilim tizimini yaratishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, virtual bilimlar makonida tafakkurning transformatsiyasi zamonaviy jamiyat rivojining murakkab va ko'p qirrali jarayoni bo'lib unda bilimning mazmuni, shakli va gnoseologik talqinlari o'zgaradi. Virtual ta'lim sharoitida bilim qanchalik fragmentar ko'rinish olmasin, to'g'ri metodik va falsafiy yondashuv asosida u yangi sifat darajasiga ko'tarilishi mumkin. Shuning uchun ta'lim tizimida virtual bilimni chuqur tahlil qiluvchi falsafiy asosga ega yondashuv zarur. Raqamli muhit inson tafakkurining tezkor, interaktiv va ijodiy shakllarini rivojlantirayotgan bo'lsa-da, tanqidiy va mantiqiy fikrlashni saqlab qolish zaruratini ham yuzaga chiqarmoqda. Shu sababli virtual va an'anaviy bilimlar uyg'unligi tafakkur transformatsiyasining asosiy sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Virtual bilimlar makoni inson tafakkurining shakllanishi, rivojlanishi va ko'lamiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda tafakkur faqat miyada emas - u raqamli makon bilan uzviy bog'liq. Shu bois, raqamli tafakkur madaniyatini shakllantirish, uni sog'lom va barqaror yo'nalishga solish - zamon talabi bo'lib qolmoqda

Xulosa o'rinda, virtual bilimlar makonida tafakkurning transformatsiyasi zamonaviy inson tafakkurining ajralmas qismiga aylangan. Bu jarayondan samarali foydalanish uchun raqamli madaniyatni oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va virtual bilimlarni an'anaviy bilimlar bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild.-T.: "O'zbekiston", 2023. 524-bet.
2. Yaxshilov J.Ya, Muhammadiyev N.E. Falsafa. –Samarqand: SamDU nashri, 2021. 145-bet.
3. Зиямухамедов Б. Бахтли ва фаровон ҳаёт хотиржамлигини таъминловчи фазилятлар: фалсафий-маърифий асар. – Тошкент: "Tamadun", 2017, 126-бет.
4. Turayev B.O. Borliq (Falsafiy tahlil). Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, -Samarqand-Toshkent: 2022. 140-bet.
5. Кушаков Ш.С. Фейковая модел дезинформации как разновидность симулятора // Yoshlarni g'oyaviy tarbiyalashning dolzarb masalalari. Talabalar ongida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish" mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. Samarqand, 2019. – S 19-21.
6. Castells M. "The Information Age: Economy, Society and Culture". Oxford: Blackwell, 2010.
7. Floridi L. "The Philosophy of Information". Oxford: Oxford University Press, 2011.
8. Toffler A. "The Third Wave". New York: Bantam Books, 2008.
9. Abdurahmonov A. "Axborotlashgan jamiyat va tafakkur muammolari". Toshkent, 2020.
10. Jaloliddinova N. U. Mutolaa-As an Important Attribute of Human Life //Kresna Social Science and Humanities Research. – 2022. – T. 4. – C. 34-35.
11. Djaloliddinova N. U. Problems of Formation of Reading Culture among Young People //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – T. 8. – №. 2.
12. Nurmatova U. J. FUNCTIONAL UNDERSTANDING OF BOOKS AND TEXTS //Archive of Conferences. – 2022. – C. 22-24.